

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.37/27.02.2020.YU.107.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

MUSAYEV QODIRBEK ABDUQODIROVICH

**QONUN HUJJATLARINING TALABLARIGA MUVOFIQ BO‘LMAGAN
BITIMNING HAQIQIY EMASLIGI
VA UNING OQIBATLARI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi.
Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Doktorlik dissertasiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата докторской диссертации
Content of the abstract of doctoral dissertation

Musayev Qodirbek Abduqodirovich

Qonun hujjatlarining talablariga muvofiq bo‘lmagan bitimning haqiqiy emasligi va uning oqibatlari 3

Мусаев Кодирбек Абдукодирович

Недействительность сделки, не соответствующей требованиям законодательства и ее последствия 22

Musayev Kodirbek Abdukodirovich

Invalidity of the transaction, does not comply with the requirements of the legislation and its consequences..... 43

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 47

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.37/27.02.2020.YU.107.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

MUSAYEV QODIRBEK ABDUQODIROVICH

**QONUN HUJJATLARINING TALABLARIGA MUVOFIQ BO‘LMAGAN
BITIMNING HAQIQIY EMASLIGI
VA UNING OQIBATLARI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi.
Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2020.4.PhD/Yu427 raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Dissertasiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.sudyalaroliymaktabi.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sindarov Komil Oydinovich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Aminjonova Matluba Axmedovna
yuridik fanlar doktori, professor

Qalandarova Malikaxon Pirnazarovna
yuridik fanlar nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi

Dissertasiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi huzuridagi PhD.37/27.02.2020. YU.107.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «__» _____ soat __:__ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 100047, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Cho‘ponota ko‘chasi, 6-uy. Tel.: (+998) 555010189; faks: (+998) 555010189, e-mail: sudyalaroliymaktabi@umail.uz).

Dissertasiya bilan Sudyalar oliy maktabining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____- raqam bilan ro‘yxatga olingan) (manzil: 100097, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Cho‘ponota ko‘chasi, 6-uy. Tel.: (+998) 555010189).

Dissertasiya avtoreferati 2023 yil «__» _____ kuni tarqatildi.

(2023 yil «__» _____ dagi ____-raqamli reestr bayonnomasi).

I.I.Nasriyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

D.R. Artikov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

B.B. Samarxodjaev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda bitimlarning qonun va axloq talablari asosida tuzilishi, bunda huquq-tartibot mezonlariga mos kelishiga jiddiy e'tibor qaratiladi. Bitim fuqarolar va yuridik shaxslarning o'z huquqlarini amalga oshirish hamda erkni ifodalash vositasi sifatida mamlakatda o'rnatilgan huquq tartibot va axloq asoslariga atayin qarshi bo'lmasligi hamda mazmunan qonunchilikka mos bo'lishi lozim hisoblanadi. Bu holat keyingi paytlarda korrupsion va reyderlik sxemalari asosidagi bitimlarning sonining oshib borayotganligi, turli yo'llar bilan davlat tomonidan belgilanayotgan imtiyozlarni qo'lga kiritish yoki belgilangan taqiqlarni aylanib o'tish yuzasidan kelishuvlar tuzilishi hamda huquq-tartibotdan Internet va virtual makondagi bitimlar yo'li bilan chetga chiqishda yanada dolzarb tus kasb etib bormoqda. Bunda bitim tomonlarning o'zaro kelishuv asosida ommaviy majburiyatlar (soliq to'lashdan bo'yin tovlash, asossiz soliq imtiyoziga ega bo'lish, vakolatlarni suiiste'mol qilish, korrupsiyaviy huquqiy munosabatlar)larga zarar yetadi, bozor monopollashadi yoki huquq tartibotning boshqa asoslari buziladi.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida qonun hujjatlariga talablariga muvofiq bo'lmagan, huquq-tartibot va axloq asoslariga atayin qarshi tuzilgan bitimlarning haqiqiy emas deb topish va uning huquqiy oqibatlariga nisbatan bir qator yondashuvlar ishlab chiqilgan. "Huquq-tartibot" ("order public") konsepsiyasi fransuz sivilistikasi tomonidan ishlab chiqilgan va bugungi kunda uning asosida "xususiy kelishuvlar bilan huquq-tartibot va axloq asoslariga taalluqli qonunlardan chetga chiqish mumkin emas"ligi yotadi. Bundan tashqari fransuz doktrinasida "jamoat manfaatlari" ("interet general")ga, ya'ni asosiy huquq va erkinliklar, shuning huquqining asosiy prinsiplariga qarshi tuzilgan bitimning haqiqiy emasligi konsepsiyasi mavjud. Ayni paytda Germaniya fuqarolik huquqi doktrinasida "axloq asoslari" ("guten Sitten")ga qarshi tuzilgan bitimning haqiqiy emasligi amal qilsa, anglosakson huquqida ommaviy tartib (public policy) axloq va adolat to'g'risidagi asosiy tasavvurlarni qamrab oladi. Odatda bu turdagi bitimlarning haqiqiy emas deb topish yo'li bilan mamlakatda qonunlarga qat'iy rioya qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda ta'minlash, korrupsiya va monopoliyaga qarshi kurashish ta'minlanadi.

O'zbekistonda "qonun talablariga mos kelmaydigan, huquq-tartibot va axloq asoslariga atayin qarshi tuzilgan bitimlarni" haqiqiy emas deb topish va uning oqibatlarini qo'llashda muayyan qonunchilik asoslari yaratilgan. Bu borada muayyan ishlanmalar mavjud. Shunga qaramasdan "qonun talablariga mos kelmaydigan, huquq-tartibot va axloq asoslariga atayin qarshi tuzilgan bitimlarni" haqiqiy emas deb topish shartlari, mezonlari va bunday bitimlarning haqiqiy emasligiga baho berishga oid aniq qoidalarni shakllantirish zarurati mavjud. Bundan tashqari, o'z o'zidan haqiqiy bo'lmagan bitimlarning ushbu turining ko'rinishlari, ushbu asosga ko'ra bitimni haqiqiy emas deb topish bo'yicha huquqni qo'llash amaliyotining bir xil bo'lishini ta'minlash, "qonun talablariga mos kelmaydigan, huquq-tartibot va axloq asoslariga atayin qarshi tuzilgan bitimlar" haqiqiy emasligi oqibatlarini aniqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek bunday turdagi bitimni tuzgan shaxslarga

nisbatan qo'llaniladigan javobgarlik choralari aniqlashtirish ham dolzarb tus kasb etadi.

Respublikada qonun ustuvorligini ta'minlashda, sud-huquq islohotlarini jadal olib borilishida xususiy mulk daxlsizligi va himoyasi kafolatlash muhim ahamiyatga ega bo'lib, Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida o'z aksini topgan¹. Qayd etish joizki, amaldagi qonunchilikda o'zining yechimini topmagan ko'plab masalalar qatorida qonunchilikning talablariga muvofiq kelmaydigan mazmundagi bitim, shuningdek, huquq-tartibot yoki axloq asoslariga atayin qarshi maqsadda tuzilgan bitimning haqiqiy emasligi masalalarini ilmiy-konseptual jihatdan o'rganish zarurati mavjud. Jumladan, statistik ma'lumotlarga asosan, fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tomonidan 2019-2021-yillar va 2022-yil 6 oy mobaynida bitimlarning haqiqiy emas deb topishga doir jami 3325 ta fuqarolik ishlari ko'rilgan. Iqtisodiy ishlar bo'yicha sudlar tomonidan 2019-2021-yillar va 2022 yil 6 oy mobaynida shartnomalarni haqiqiy emas deb topishga doir jami 1620 ta iqtisodiy ishlari ko'rilgan². Bu esa yuridik fan oldiga ushbu yo'nalishida muammolarni aniqlash, ilmiy tahlil etish va ularni hal etish bo'yicha ilmiy yechimlar ishlab chiqish, sohada chuqur va kompleks tadqiqot o'tkazish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (1995, 1996), Iqtisodiy protsessual kodeksi (2018), Fuqarolik protsessual kodeksi (2018), O'zbekiston Respublikasining "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdor huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi (2012), "Ko'p kvartirali uylarni boshqarish to'g'risida"gi Qonun (2019), "Transport to'g'risida"gi Qonuni (2021), "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni (2021), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni (2022), "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori (2021) va mavzuga oid boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan ustuvor vazifalarning amalga oshirilishida muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bugungi kunga qadar qonun hujjatlarining talablariga muvofiq bo'lmagan bitimning haqiqiy emasligi va uning oqibatlari masalalari qator huquqshunos olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, O'zbekiston milliy huquq tizimida bitimlarning haqiqiy emasligi jihatlari H.R. Rahmonqulov, I.B. Zokirov, O. Oqyulov, Sh.N. Ro'zinazarov, K.O. Sindarov, I.I. Nasriyev, B.B. Samarxodjaye, R.Dj.Ro'ziyev,

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi FP-60-son Farmoni//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330

²O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2022-yil 14-sentabrdagi 07/14-12350-306-sonli ma'lumotnomasi.

D.M. Karaxodjayeva, S.S. Gulyamov, M.A. Aminjonova, M.X. Baratov, N.F. Imomov, I.R. Rustambekov, B.K. Xodjayev, Dj.I. Babayev, F.B. Ibratova, S.B. Xolboyev, M.P. Qalandarova, I.B. Yakubova, I.T. Raximov, M.Y. Usmonovalar tomonidan chop etilgan ilmiy ishlar, adabiyotlar va maqolalarda dissertatsiya mavzusiga oid ayrim masalalar muayyan darajada ochib berilgan.

MDH davlatlarida S.N. Bratus, M.I. Braginskiy, V.V. Vitryanskiy, O.S. Ioffe, V.P. Shaxmatov, O.A. Krasavchikov, Ye.A. Suxanov, D.O. Tuzovlarning asarlarida bitimlarning haqiqiy emasligining ayrim jihatlari bo'yicha o'rganishlar olib borilgan.

Xorijda qonun hujjatlari talblariga muvofiq bo'lmagan bitimning haqiqiy emasligi oid tadqiqot va o'rganishlar Dzera I., Entela Abdul, Kelsen H., Treitel G.H., Buffelen-Lanore Y., Savigny F.C., Zitelmann E. va boshqalar tomonidan o'tkazilgan.

Xususan, huquqshunos olimlar V.P. Shaxmatov fuqarolik huquqida bitim tushunchasining asosiy muammolarini, D.O. Tuzov nizoli va o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmagan bitimlarning haqiqiy emasligini, O.A. Krasavchikov yuridik faktlar yuzasidan maxsus tadqiqot olib borgan.

Garchi tadqiqot mavzusi doirasida muayyan ilmiy ishlanmalar mavjud bo'lsada, bugungi kunda O'zbekistonning rivojlanish sharoitida fuqarolik qonunchiligi, huquqni qo'llash amaliyoti yuzasidan qonun hujjatlarining talblariga muvofiq bo'lmagan bitimning haqiqiy emasligi va uning oqibatlari bilan bog'liq masalalar ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan alohida tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim tashkilotining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat yuridik universitetining "Fuqarolik jamiyatida bitim tomonlarining huquq va manfaatlarini himoya qilishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish" ilmiy – tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ustuvor yo'nalishlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qonun hujjatlarining talblariga muvofiq bo'lmagan bitimning haqiqiy emasligi va uning oqibatlariga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qonun hujjatlarining talblariga muvofiq bo'lmagan bitimning haqiqiy emasligining genezisi, doktrinal qarashlarni tahlil qilish;

qonun hujjatlarining talblariga muvofiq bo'lmagan bitimning haqiqiy emasligining huquqiy tabiatini o'rganish;

qonun hujjatlariga nomuvofiqlik mezonlari va ularni qo'llash amaliyoti masalalarini tadqiq etish;

qonun hujjatlarining talblariga muvofiq bo'lmagan bitimning haqiqiy emasligiga oqibatlarini qo'llash masalalarini ilmiy tahlil qilish;

huquq-tartibot asoslari kategoriyasini aniqlashning metodologik masalalarini o'rganish;

huquq-tartibot asoslariga atayin zid maqsadda tuzilgan bitimning yuridik oqibatlari masalalarini tahlil etish;

axloq asoslari kategoriyasining ilmiy-nazariy tavsifini ishlab chiqish;
qonun hujjatlarining talablariga muvofiq bo'lmagan bitimning haqiqiy emasligi va uning oqibatlariga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini qonun hujjatlarining talablariga muvofiq bo'lmagan bitimning haqiqiy emasligi va uning oqibatlariga oid fuqaroviy-huquqiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini qonun hujjatlarining talablariga muvofiq bo'lmagan bitimning haqiqiy emasligiga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi, amaliyoti hamda yuridik fanda mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalardan iboratdir.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida mantiqiy, tizimli-tuzilmaviy, aniq sotsiologik, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, induksiya va deduksiya, emperik tadqiqot, statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qonunda nazarda tutilgan hollarda sud qasddan harakat qilgan bitim taraflari olgan barcha narsani davlat daromadiga undirishi yoki qonunda belgilangan boshqa oqibatlarni qo'llashi mumkinligi asoslantirilgan;

qonunchilik talablariga zid bo'lgan bitim, agar qonunda qonunchilik talablari buzilishi bitimni haqiqiy emas deb topish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa oqibatlari qo'llanilishi nazarda tutilgan bo'lmasa, nizoli hisoblanishi asoslangan;

agar bitimni haqiqiy emasligi oqibatlarini qo'llash huquq-tartibot yoki axloq asoslariga zid yoxud insofli egallovchi manfaatlariga zarar yetkazadigan bo'lsa sud bitimning haqiqiy emaslik oqibatlarini qo'llamasligi asoslangan;

yo'lovchilar va yuk egalari bilan tashuvchining, aralash tashishlar chog'ida esa aralash tashishlar operatorining qonunda belgilangan javobgarligini cheklash yoki bekor qilish to'g'risidagi kelishuvlari haqiqiy emasligi asoslantirilgan;

sug'urta shartnomasining qonunda belgilangan shakliga oid talablarga rioya qilmaslik mazkur shartnomaning haqiqiy emasligiga olib kelishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qonunchilik talablariga muvofiq bo'lmagan bitim, shuningdek huquq-tartibot va ahloq asoslariga zid maqsadda tuzilgan bitimning haqiqiy emasligi va o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan holda ushbu tushunchalarning mualliflik ta'rifi ishlab chiqilib, Fuqarolik kodeksida ifodalash zarurati ilgari surilgan;

qonunchilik talablariga muvofiq bo'lmagan bitim, shuningdek huquq-tartibot va ahloq asoslariga zid maqsadda tuzilgan bitimning haqiqiy emasligi va uning oqibatlarini qo'llashda sudlarning rolini belgilashga doir takliflar ishlab chiqilgan;

qonunchilik talablariga zid bo'lgan bitimning haqiqiy emasligini aniqlashda ta'qiq va ko'rsatmalariga asosan nomuvofiqlik me'zonlarini ko'rsatish va uning normativ bazasini aniq belgilash yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan;

huquq-tartibot va ahloq asoslariga qarshi maqsadlarda bitimni tuzish qasddan amalga oshirilgan holatlarda aybdor taraf olgan narsalarni davlat daromadiga o'tkazish oqibatini qo'llash mexanizmini joriy qilish taklif qilingan;

ahloq asoslariga zid maqsadda tuzilgan bitim keyingi shartnomalar uchun asos qilib olinsa, ular ham haqiqiy emas deb topilish taklifi ilgari surilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqot natijalari milliy qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, huquqni qo'llash amaliyotida, o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnomalar bo'yicha statistik ma'lumotlarni umumlashtirib, olingan natijalar vakolatli davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy etilgan. Xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o'tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyatda, qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda fuqarolik huquqi, shartnoma huquqi fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalaridan yangi ilmiy tadqiqotlar olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qonun ijodkorligi faoliyatida, xususan, normativ huquqiy-hujjatlar tayyorlash hamda ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish jarayonida huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishda hamda oliy yuridik ta'lim muassasalarida xususiy huquq sohasidagi fanlarni o'qitishda xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalaridan quyidagilarda foydalanilgan:

sud qasddan harakat qilgan bitim taraflari olgan barcha narsani davlat daromadiga undirishi yoki qonunda belgilangan boshqa oqibatlarni qo'llashi mumkinligiga oid taklif yangi tahrirda ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi loyihasini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Yuridik ta'minlash boshqarmasi 2022-yil 24-avgustdagi 12/21-57-sonli ma'lumotnoma). Ushbu takliflarning joriy etilishi bitim tuzuvchilarning belgilangan talablarga rioya etishlariga nisbatan qat'iy rejimni belgilashga xizmat qiladi;

bitim tuzishda qonunchilik talablari buzilishi uni haqiqiy emas deb topish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa oqibatlari qo'llanilishi nazarda tutilgan bo'lsa, nizoli hisoblanishi haqidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Yuridik ta'minlash boshqarmasi 2022-yil 24-avgustdagi 12/21-57-sonli ma'lumotnoma). Mazkur taklif qonunchilik talablariga zid bo'lgan bitimga nisbatan nizoli bitimga oid qoidalarni tatbiq etish masalasini aniqlashtirishga xizmat qiladi;

bitimni haqiqiy emasligi oqibatlarini qo'llash huquq-tartibot yoki axloq asoslariga zid yoxud insofli egallovchi manfaatlariga zarar yetkazadigan bo'lsa sud bitimning haqiqiy emaslik oqibatlarini qo'llamasligiga oid taklifdan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi loyihasini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Yuridik ta'minlash boshqarmasi 2022-yil 24-avgustdagi 12/21-57-sonli ma'lumotnoma). Mazkur taklif sud tomonidan bitimning haqiqiy emaslik oqibatlarni qo'llashda sud tomonidan e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlarni belgilash imkonini beradi;

yo'lovchilar va yuk egalari bilan tashuvchining, aralash tashishlar chog'ida esa aralash tashishlar operatorining qonunda belgilangan javobgarligini cheklash

yoki bekor qilish to‘g‘risidagi kelishuvlari haqiqiy emasligiga oid takliflar O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 9-avgustdagi “Transport to‘g‘risida” O‘RQ-706-son Qonunining 39-moddasi birinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasining 2022-yil 22-noyabrdagi 06-13-66-sonli ma‘lumotnoma). Ushbu taklif tashish shartnomasidan kelib chiqadigan majburiyatlar bo‘yicha javobgarlik choralari kuchaytirishga xizmat qilgan;

sug‘urta shartnomasining yozma yoki elektron shaklini tuzishga doir talablarga rioya etmaslik ushbu shartnomaning haqiqiy emasligiga doir takliflar O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabrdagi “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi 730-son Qonunining 29-moddasi beshinchi qismini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasining 2022-yil 22-noyabrdagi 06-13-66-sonli ma‘lumotnoma). Mazkur takliflar sug‘urta shartnomasining haqiqiy emas deb topishning maxsus asoslarini belgilashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 12 ta respublika miqyosda o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya hamda seminarlarda sinovdan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 26 ta ilmiy ish, jumladan, 12 ta ilmiy maqola (3 tasi xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 132 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertasiyaning **kirish (dissertatsiya annotatsiyasi)** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim tashkilotining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan aloqasi, uning maqsad va vazifalari, ob‘ekt va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobasiyasi, natijalarning e‘lon qilinganligi, dissertasiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning **“Qonun hujjatlarining talablariga muvofiq bo‘lmagan bitimning ilmiy-nazariy tavsifi”** deb nomlangan birinchi bobida qonun hujjatlarining talablariga muvofiq bo‘lmagan bitimning haqiqiy emasligining genezisi, doktrinal qarashlar, qonun hujjatlarining talablariga muvofiq bo‘lmagan bitimning haqiqiy emasligining huquqiy tabiatining mohiyati ochib berilgan.

Tadqiqot ishida davomida qonun hujjatlarining talablariga muvofiq bo‘lmagan bitimning haqiqiy emasligining genezisi, doktrinal qarashlar tahlil qilingan. Dissertatsiyada qonun hujjatlarining talablariga muvofiq bo‘lmagan

bitimning haqiqiy emasligini genezisi hozirgi zamon fuqarolik huquqida rim huquqi ta'siri ostida rivojlanib kelgan bo'lib, hozirgi paytga kelib, ma'lum bir ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishi asoslantirib berilgan. Muallifning fikricha, bitimning haqiqiy emasligi bitim fakti uchun emas, balki bitim huquqiy munosabatlar uchun amal qiladi, yuridik fakt sifatida bitim har doim tomonlarning erk-irodaga yo'naltirilgan yuridik oqibatlarni o'zida namoyon etadi.

Tadqiqot ishida bitimning haqiqiy emasligi to'g'risida fuqarolik huquqi tizimi turli xil yondashuvlar mavjud bo'lib, "nuqsonli bitim", "huquqiy oqibatlarining mavjud bo'lmasligi", "huquqbuzarlik", "erk-irodaning ifodalanmaganligi" kabi doktrinalar shakllanganligini va ular huquqbuzarliklar bilan bog'lanligini asoslab beradi. Huquq-tartibot yoki axloq asoslariga atayin qarshi maqsadda tuzilgan bitimning haqiqiy emasligi fuqarolik huquqbuzarlik sifatida tavsiflanib, huquqqa hiloflilik, ayblilik, ijtimoiy zarar, yuridik oqibatni belgilashga imkon beradi.

Bitimning haqiqiy emasligi uning ishtirokchilari tomonidan bitim tuzish vaqtida huquqqa hilof harakatlari natijasida vujudga keladi. Bu shuni anglatadiki, bitim tuzilgandan keyin uning taraflari tomonidan bitim bo'yicha majburiyatlarni lozim darajada bajarilmasligi yoki tomonlarining huquqqa hilof harakatlari uning haqiqiy emasligi uchun asos bo'lmaydi. Ushbu masala fuqarolik qonunchiligi yoki sud amaliyoti orqali hal etiladi.

Fuqarolik qonunchiligida "fuqarolik huquqbuzarligi" tushunchasi keng qo'llanilishiga qaramasdan, o'zining aniq ilmiy ta'rifi mavjud emas. Ammo uning qonunga xilofligini fuqarolik huquqining asosiy belgisi deb hisoblanadi. Fuqarolik huquqbuzarlik qonun talablariga zid bo'lgan shaxsning aybli xulq-atvori, shuningdek buning uchun huquqbuzarga nisbatan davlat tomonidan majburlash choralari qo'llanilishi deb tushiniladi.

Bitimning nizoliligini bitim shaklida amalga oshiriladigan harakatlar faqat qonunda ko'rsatilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda sud tomonidan haqiqiy emas deb topiladi.

Dissertant bitimning haqiqiy emasligi noqonuniy bo'lganligi sababli huquqiy munosabatlar sub'ektlarining harakatlari huquqqa xilof hisoblanishini va bitimning haqiqiy emasligi bitim ko'rinishida amalga oshirilgan harakat sub'ektlar sodir bo'lishini istagan fuqarolik huquqi oqibatlari yuzaga keltiradigan yuridik faktlar sifatida namoyon bo'lmaydi degan xulosaga keladi.

O'z-o'zidan haqiqiy bo'lmagan bitim noqonuniy harakat bo'lgan holda faqat qonunda ushbu holat uchun ko'zda tutilgan huquqbuzarlikka qarshi oqibatlarni yuzaga keltiradi. O'z-o'zidan haqiqiy bo'lmagan oqibatlarini qo'llash to'g'risidagi talab har qanday manfaatdor shaxs tomonidan bildirilib, sud bunday oqibatlarni o'z tashabbusiga ko'ra qo'llashga haqli bo'ladi.

Bitimlarni haqiqiy emas deb topish FKning 115-126-moddalarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha, shartnomani bekor qilish FKning 382-383-moddalari bilan tartibga solinadi. Haqiqiy bo'lmagan bitim uning haqiqiy emasligi bilan bog'liq bo'lgan oqibatlardan tashqari boshqa yuridik oqibatlarga olib kelmaydi va u tuzilgan paytidan boshlab haqiqiy emasdir, shartnomani bekor qilish haqidagi talabni bildirishga shartnoma amal qilishining muddati mobaynida yo'l qo'yiladi,

bitim esa uning amal qilish muddati tugaganidan keyin ham haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Dissertant bitimning haqiqiy emasligiga uning g'ayriqonuniyligi va shartnomaning bekor qilinishiga olib kelishini hamda bitim haqiqiy emasligining asosiy shartlaridan biri sifatida bitim mazmunining qonuniyligi buzilishi hisoblanib, uning tushunchasi keng va umumiy ma'noda nafaqat qonunning o'zi, balki huquq-tartibot va axloq asoslarini ham qamrab olishini asoslab bergan.

Dissertant mazmuni qonunchilik talablariga, huquq-tartibotga va ahloq asoslariga atayin zid bo'lgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 116-moddasiga asosan amalga oshiriladi, - degan xulosaga keladi.

Ishda ilmiy tahlillar natijasida bitimning haqiqiy emasligining xususiyatlarini o'rganilgan holda, "Bitimning haqiqiy emasligi" tushunchasiga mualliflik ta'rifi shakllantirilgan. Muallif bitimning haqiqiy emasligi va uning oqibatlariga berilgan rivojlangan mamlakatlar olimlarining fikrlarini keltirgan holda, bitimning haqiqiy emasligi bitim shaklida amalga oshirilgan harakatlar subyektlar kutgan fuqarolik huquqiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan yuridik faktning sifatiga ega emasligini asoslab bergan. Zero bitimning haqiqiy emasligi oqibatlarini bajarilishi hech qanday maxsus qonun hujjatlari bilan emas, balki bitimlar to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Dissertasiyaning **"Qonun hujjatlarining talablariga muvofiq bo'lmagan bitimning haqiqiy emasligining nazariy va amaliy masalalari"** deb nomlangan Dissertasiyaning ikkinchi bobida qonun hujjatlariga nomuvofiqlik mezonlari va ularni qo'llash amaliyoti hamda qonun hujjatlarining talablariga muvofiq bo'lmagan bitimning haqiqiy emasligiga oqibatlarini qo'llash masalalari yoritilgan.

Fuqarolik kodeksining 116-moddasidagi qonun hujjatlariga nomuvoqlik me'zoni belgilangan ta'qiq yoki huquqlarni amalga oshirishga doir ko'rsatmalarga rioya qilmaslik tushunilib, ular qonunda belgilangan muayyan harakatlarni sodir etishga ta'qiq, qonunda belgilangan oqibatlarni keltirib chiqaradigan har qanday harakatlar sodir etishga ta'qiq, muayyan harakatlarni amalga oshirish uchun qonun yoki boshqa huquqiy hujjatda mavjud bo'lgan ko'rsatma va qonunda ko'rsatilgan ko'rsatma subektiv huquq doirasida bo'lsa, boshqa shaxslarning manfaatlarini ko'zlab har qanday harakatlarni amalga oshirilgan bo'lishida namoyon bo'ladi.

Dissertant qonunchilik va sud amaliyot qoidalarini tahlil qilish asosida ta'qiq va ko'rsatmalarni ularning kelib chiqish manbasiga qarab qonun chiqaruvchi tomonidan o'rnatilgan huquqiy oqibatlar mezonini bo'yicha yoki sudning qarori bilan belgilanishi bo'yicha bir necha guruhlariga bo'lishini, ya'ni a) fuqarolik qonunchiligida belgilangan muayyan turdagi bitimning taqiqlanishi, bitimning tuzilishi uning haqiqiy emasligiga sabab bo'ladi. Bunday ta'qiqqa misol sifatida Fuqarolik kodeksining 916-moddasi birinchi qismi bilan g'ayriqonuniy manfaatlarini sug'urtalashga yo'l qo'yilmaydi va bunday shartlarni o'z ichiga olgan sug'urta shartnomasi o'z-o'zidan haqiqiy emas. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi "Ko'p kvartirali uylarni boshqarish to'g'risida"gi Qonunining 39-moddasi beshinchi qismidagi shirkat a'zosining ishonchnomasida uning berilgan kuni ko'rsatilmagan bo'lsa, ishonchnoma haqiqiy emas. O'zbekiston

Respublikasi “Transport to‘g‘risida”gi Qonunining 39-moddasi birinchi qismida yo‘lovchilar va yuk egalari bilan tashuvchining, aralash tashishlar chog‘ida esa aralash tashishlar operatorining qonunda belgilangan javobgarligini cheklash yoki bekor qilish to‘g‘risidagi kelishuvlari haqiqiy emasligi ko‘rsatilgan. O‘zbekiston Respublikasi “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunining 29-moddasi beshinchi qismida sug‘urta shartnomasining yozma yoki elektron shaklini tuzishga doir talablarga rioya etmaslik ushbu shartnomaning haqiqiy emasligi belgilangan; b) qonun hujjatlarida belgilangan taqiq, uning buzilishi bitimning bir qismini haqiqiy bo‘lmasligiga olib keladi. Masalan, Oila kodeksining 2-moddasi 44-bandiga binoan, agar shartnoma shartlari turmush o‘rtog‘ini o‘ta noqulay holatga keltiradigan bo‘lsa, sud turmush o‘rtoqlardan birining iltimosiga binoan nikoh shartnomasini to‘liq yoki qisman haqiqiy emas deb topishi mumkin; c) muayyan ijtimoiy munosabatlar sohasini tartibga soluvchi qonun hujjatlarida ko‘rsatilgan ta‘qiqning buzilishi uning haqiqiy emasligiga olib keladi. Bunday ta‘qiqning buzilishi ommaviy javobgarlikni keltirib chiqarishi mumkin, javobgarlik taraflar tomonidan o‘zaro kelishgan holda penya yoki jarima, shuningdek yetkazilgan zararni qoplash shaklida belgilanishi mumkin. Biroq, ushbu ta‘qiq har doim bitimning haqiqiy emasligiga olib kelmaydi. Masalan, yetkazib berish shartnomasi bo‘yicha tovarlar zararli yoki xavfli tovarlar bo‘lsa, ularni yetkazib berish uchun avtomobil transportida tashishning maxsus tartibi o‘rnatiladi; d) fuqarolik qonunchiligida belgilangan ta‘qiq, uning buzilishi bitimning haqiqiy emasligi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, lekin uni konvalidatsiya qilish imkoniyatini beradi (bitimni haqiqiy emas deb topish asoslarini bartaraf etish mumkin). Masalan, Fuqarolik kodeksining 126-moddasiga binoan, agar shaxsning bitim tuzish vakolatlari shartnoma bilan yoki yuridik shaxs vakolatlari uning ta‘sis hujjatlari bilan ishonchnomada, qonunda belgilab qo‘yilganiga nisbatan yoki bitim tuzilayotgan vaziyatdan aniq ko‘rinib turgan deb hisoblanishi mumkin bo‘lgan vakolatlariga nisbatan cheklab qo‘yilgan bo‘lsa va bitimni tuzish paytida bunday shaxs yoki organ ana shu cheklashlar doirasidan chiqib ketgan bo‘lsalar, bitimdagi ikkinchi taraf mazkur cheklashlarni bilgan yoki oldindan bilishi lozim bo‘lganligi isbotlangan hollardagina bitim cheklash belgilanishidan manfaatdor bo‘lgan shaxsning da‘vosi bo‘yicha sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin; e) sud yoki boshqa vakolatli organ tomonidan uning yurisdiksiyasiga muvofiq nizoni hal qilish munosabati bilan belgilanadigan ta‘qiq. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 94-moddasida qarzdorning mol-mulkini xatlash oqibatida bitim tuzish ta‘qiqlanishi ko‘rsatilgan, -degan xulosaga keladi.

Dissertant fikrlar va tahlillarga tayangan holda FKga “Qonunchilik talablarini buzadigan bitimning haqiqiy emasligi” nomli moddani kiritish taklifini ilgari suradi va ushbu moddaning matnini shakllantiradi.

Tadqiqotchining tahlillari natijasida qonun hujjatlarining talablariga muvofiq bo‘lmagan bitimning haqiqiy emasligining nazariy va amaliy masalalari o‘rganilgan holda “Bitimning haqiqiy emasligi” tushunchasiga mualliflik ta‘rifi ishlab chiqilgan. Dissertant tomonidan qonun hujjatlarining talablariga muvofiq bo‘lmagan bitimlarning haqiqiy emasligi haqidagi ko‘rsatma imperativ xarakterga ega bo‘lib, ushbu holatda sudlar tomonidan bu turkum nizolarni hal qilishda

mavjud qoidalarga baho berish shartlari va asoslari, qo'llaniladigan qonunchilik hujjatlari, fuqarolik muomala va odat normalari, huquqni qo'llash amaliyotini tadqiq qilish zaruriyati mavjud, - degan xulosaga keladi.

Dissertasiyaning uchinchi bobida **“Huquq-tartibot va axloq asoslariga atayin zid maqsadda tuzilgan bitimning haqiqiy emasligini o'ziga xos xususiyatlari”** haqida so'z yuritilgan bo'lib, unda huquq-tartibot asoslari kategoriyasini aniqlashning metodologik masalalari, huquq-tartibot asoslariga atayin zid maqsadda tuzilgan bitimning yuridik oqibatlarini, axloq asoslari kategoriyasining ilmiy-nazariy tavsifi, axloq asoslariga atayin zid maqsadda tuzilgan bitimning haqiqiy emasligini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha taklif-tavsiyalar berilgan.

Fuqarolik qonunchiligida huquq-tartibot – bu ijtimoiy hayotning obyektiv va sub'ektiv shartlangan holati bo'lib, u ichki izchillik, huquq va qonuniylik tamoyillari, shuningdek, demokratik, insonparvarlik va axloqiy talablar, huquq va majburiyatlar, erkinlik va javobgarlik asosida huquqiy munosabatlar tizimi bilan tavsiflanadi.

Yuridik adabiyotlarda ta'kidlanganidek, “huquq-tartibot asoslari” tushunchasiga turli xil ta'riflar keltirib o'tilgan.

Dissertant tomonidan huquq-tartibot asoslari tushunchasi mualliflik yondashuvi amalga oshirilgan bo'lib, quyidagi ta'rif keltirib o'tilgan: “huquq-tartibot asoslari davlat tomonidan chiqarilgan, sanksiyalangan rasmiy ravishda tan olingan shakllaridagi normalar to'plami sifatida belgilanadi.

Huquq-tartibot asoslari – bu jamiyat va davlat uchun eng muhim ahamiyat kasb etib, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari, sog'lig'i, xavfsizligini mustahkamlaydigan va himoya qiladigan prinsiplar hisoblanadi. Huquq-tartibot jamiyat manfaatlarini himoya qilish uchun ishlab chiqilgan bo'lib, unga tajovuz qilish davlat va jamiyatning hayotiyligini buzishga olib keladi”.

Dissertant tomonidan ilmiy adabiyotlarni tahlil qilishi natijasi qonuniylik va huquq-tartibotning bir qancha tasniflash amalga oshirilgan bo'lib, ularga qonunchilikni takomillashtirish, davlat va jamoatchilik nazorati, prokuror nazorati, mustaqil odil sudlov, ichki ishlar organlari, davlat soliq va bojxona organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyati, davlat apparatining optimal tuzilmasini yaratish, kadrlarni puxta tanlash va joylashtirishni nazarda tutuvchi tashkiliy kafolatlar, inson huquqlari tashkilotlari, birinchi navbatda, advokatura faoliyati, yuridik javobgarlik instituti, fuqarolarning shikoyatlari va arizalarini ko'rib chiqish, yuridik fan va ta'limning ahvoli bilan bog'liq doktrinal kafolatlarni kiritish mumkin.

Huquq-tartibotni o'rganishning quyidagi yo'nalishlari dolzarbligicha qolmoqda: a) institutsional, birinchi navbatda fuqarolik jamiyati va davlat vakilligi orqali taqdim etilgan; b) normativ, shu jumladan qonun hujjatlari va huquqning boshqa manbalaridan iborat; v) funksional, u huquqiy-tartibot va huquqiy tizimlarni shakllantirish va amalga oshirish mexanizmlarini aniqlash imkonini beradi. Biroq, bu masalalar mustaqil nashrlar doirasida alohida ko'rib chiqishga loyiqdir, - degan xulosaga kelinadi.

Dissertant huquq-tartibot asoslariga atayin zid maqsadda tuzilgan bitimning yuridik oqibatlarini qo'llashi haqida turli xil muammolarga to'xtalib o'tadi.

Huquqni qo'llash amaliyotida tomonlarning bittasi tarafdin bitim majburiyatlarini bajarmaslik va bitimni xaqiqiy emasligini tan olish uchun asos mavjudligi o'rtasida har doim ham aniq chegara o'rnatilmaydi. Bunday holat va mazkur masala bo'yicha sud amaliyotining turli qirralarga egaligi yo'l qo'yib bo'lmaydigan holat hisoblanadi va sudlar faqat bitim tuzilayotganda amaldagi huquq normalari buzilganligini ko'rsatayotgan holatlar mavjud bo'lganda bitimning xaqiqiy emasligi to'g'risidagi normalarni qo'llash maqsadga muvofiqdir, - degan xulosaga kelindi.

Bitim xaqiqiy hisoblanishi uchun aynan qaysi qonunlar va huquqiy hujjatlarga muvofiq bo'lishi kerakligini aniqlashda muayyan qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bunda masalani qonunlar va huquqiy hujjatlar darajasida va ularning sohaviy tegishlilik jihatida o'rganish lozim.

Dissertant tomonidan axloq asoslari kategoriyasiga mualliflik ta'rifi beriladi. Shuningdek, "huquq-tartibot asoslari" tushunchasining mazmuni ozmi-ko'pmi aniqlashni imkoni mavjud bo'lsada, "axloq asoslari" tushunchasi esa ancha murakkab bo'lib, ushbu sohadagi tadqiqotchilarning aksariyati "axloq asoslari" mazmunini aniqlashda diniy me'yorlarga murojaat qilishlari mumlikligi, - degan xulosaga keladi.

Dissertant axloq asoslari huquq normalarida mustahkamlanib, tabiiy ravishda huquqiy shaklda namoyon bo'ladi va huquqni har qanday davlatning ajralmas elementi sifatida jamiyatda mavjud bo'lgan axloqiy qadriyatlardan to'liq ajratib bo'lmaydi, shuningdek, huquq mavjudlikni aks ettirishga, insonlarning yaxshi va yomon haqidagi ma'lum va umume'tirof etilgan g'oyalariga asoslanib, davlat va jamiyatlarning rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan, - degan fikrga keladi.

Dissertant axloq kategoriyasini batafsil tahlil etgan holda axloqiy munosabatlarni, axloqning huquq-tartibotga ta'sirini, uning qonunchilik normalarida mustahkamlanganligi bo'yicha ilmiy ta'rifini asoslab beradi.

Tadqiqotchi barcha antiijtimoiy bitimlarni quyidagi uchta toifaga bo'lish mumkinli taklifini ilgari surib, birinchisi, ma'lum bir antiijtimoiy bitimning mazmuni bir vaqtning o'zida huquq-tartibot va axloq tamoyillarga zid bo'lishi mumkin, ya'ni bir vaqtning o'zida ham huquqiy, ham axloqiy taqiqlarni buzishi, ikkinchisi, antiijtimoiy bitimning mazmuni faqat huquq-tartibot asoslariga (jamoat tartibiga) zid bo'lishi mumkin, ammo hech qanday tarzda axloq prinsiplariga ta'sir qilmasligi, uchinchisi, bitimning mazmuni faqat axloq asoslariga zid bo'lishi mumkin va to'g'ridan-to'g'ri tarzda huquq-tartibot normalarini yoki boshqa shunga o'xshash imperativ ko'rsatmalarni buzmaydi yoki ta'sir qilmaydi, - deb hisoblaydi.

Dissertatsiyada amalga oshirilgan tahlillar asosida FKga "Huquq-tartibot yoki axloq asoslariga qarshi maqsadlarda tuzilgan bitimning haqiqiy emasligi" nomli moddani kiritish asoslantirilgan. Shuningdek muallif tomonidan ingliz sud amaliyotiga tayangan holda bitimlarni haqiqiy emas deb topish oqibatida ahloq asoslarini buzgan tarafga ko'proq majburiyat yuklatilgan, olingan narsalarni qaytarishda ham unga ko'proq javobgarlik belgilangan. Ushbu amaliyotga

tayangan holda milliy qonunchilikda bitim tuzishda ahloq asoslarini buzgan tarafga ko‘proq majburiyat yuklash bilan bog‘liq qoidalarni kiritish taklif qilinadi. Bundan tashqari Fransiya qonunchiligi normalariga asoslangan holda, predmeti noqonuniy yoki axloqsiz harakatlardan iborat bo‘lgan shartnoma haqiqiy emasligi va ushbu shartnoma boshqa shartnomaviy majburiyatlar uchun asos qilib olinsa, ular ham haqiqiy emas deb topilishiga doir qoidalarni milliy qonunchilikka kiritish taklifini ilgari suradi.

Xorijiy davlatlar qonunchiligini tahlil qilgan holda FKning 1-moddasi to‘rtinchi qismiga qo‘shimcha kiritish asoslantirilib, uning matni shakllantiriladi.

Tadqiqotchi antiijtimoiy bitimlarning nazariy asoslariga tayangan holda va amalda lozim darajada qo‘llanilishi ta‘minlash, shuningdek, huquq-tartibot yoki axloq asoslariga qarshi maqsadlarda tuzilgan bitimning haqiqiy emasligi va qonunchilik talablarini buzadigan bitimning haqiqiy emasligini alohida bayon qilish taklifini ilgari suradi. Shunga ko‘ra, ishda FKning 116-moddasining yangi tahririni taklif qilinadi va “Qonunchilik talablarini buzadigan bitimning haqiqiy emasligi” nomli 116¹-modda bilan to‘ldirish lozimligini asoslantirilib, uning matnini ishlab chiqiladi.

Dissertasiya yakunida dissertant O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 22-dekabrda “Sud amaliyotida bitimlarni tartibga soluvchi qonunchilik normalarini tatbiq qilishda vujudga keladigan ayrim masalalar to‘g‘risida”gi 7-son, O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 2014-yil 28-noyabrda “Iqtisodiy sudlar tomonidan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi fuqarolik qonun hujjatlari normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 269-son qarori o‘z taklifini ilgari surgan.

XULOSA

Qonun hujjatlarining talablariga muvofiq bo‘lmagan bitimning haqiqiy emasligi va uning oqibatlari masalalarini tahlil qilgan qolda quyidagi ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. Fanda bitimning haqiqiy emasligiga doir “nuqsonli bitim”, “huquqiy oqibatlarning mavjud bo‘lmashligi”, “huquqbuzarlik”, “erk-irodaning ifodalanmaganligi” doktrinalar shakllangan. Bunda “qonun hujjatlarining talablariga muvofiq bo‘lmagan bitim”ga nisbatan har doim “huquqbuzarlik” doktrinasini qo‘llash bahsli bo‘lib, bu o‘z navbatida “bitimni isloh” qilish imkoniyatining mavjudligi bilan izohlanadi. Shu sababli fuqarolik huquqi doktrinasiga “qonun hujjatlarining talablariga muvofiq kelmaydigan mazmundagi bitim, shuningdek huquq-tartibot yoki axloq asoslariga atayin qarshi maqsadda tuzilgan bitim”ni isloh qilishga oid o‘zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq.

2. Amaldagi qonunchilikda “o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan bitimlar”ga nisbatan mavhum izoh keltirilgan. Milliy fuqarolik huquqi doktrinasidagi bunday talqin “o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan bitimlar”ni turlicha tushunish va qarama-qarshi nuqtai nazarlarni shakllantirishga imkon beradi. Fikrimizcha, “o‘z-o‘zidan

haqiqiy bo‘lmagan bitim” deganda, haqiqiy emasligi qonunchilik hujjatlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilgan bitimlar tushunilishi va bu holatlar bunday bitimlarning sud tomonidan haqiqiy emasligi talab etilmasligi qonunchilik va fuqarolik huquqi doktrinasida o‘z ifodasini topishi zarur.

